

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

## **O‘ZBEK VA TURKMAN TILLARIDA OLMOSH SO‘Z TURKUMINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI*

*2-kurs talabasi*

**Sanjar Yo’ldoshev**

*Ilmiy rahbar: f.f.n., dots.*

**M.Xudayarova**

*Annotatsiya:* mazkur maqolada o‘zbek va turkman tillaridagi olmosh so‘z turkumi qiyosiy o‘rganildi. Olmosh so‘z turkumining o‘ziga xos va farqli tomonlari tahlil qilindi.

*Kalit so‘zlar:* o‘zbek tili, turkman tili, qardosh tillar grammatikasi, olmosh so‘z turkumi.

Turkiy tillar morfologiyasi, xususan, so‘z turkumlarining leksik-semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini ilmiy asosda tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. O‘zbek va turkman tillari oltoy tillar oilasining turkiy tillar guruhibiga kiradi, ikkala tilning morfologik xususiyatlarini organish, tilshunoslikning nazariy va amaliy jihatlarini ochishga yordam beradi.

Ot, sifat, son, ravish o‘rnida qo‘llanib. ularga ishora qiluvchi va ularning vazifasini bajaruvchi so‘z turkumi olmoshdir. Olmoshlar narsani, uning belgisi va miqdorini anglatmaydi, balki ularni ko‘rsatish, ularga ishora qilish uchun xizmat qiladi.

Olmoshlarda maxsus so‘z yasovchi qo‘shimchalar yo‘q. Qadimgi turkiy til materiallari olmoshlar egalik qo‘shimchalari va fe’lning shaxs-son qo‘shimchalari bilan genetik bog‘liqligini tasdiqlaydi. Barcha turkiy tillarda olmoshlar yagona turlanish tizimiga ega [2:103].

Ma’lumki, o‘zbek tilida olmoshlarning ma’no va mazmuniga ko‘ra yetti turi mavjud. Bular kishilik, o‘zlik, ko‘rsatish, so‘roq, belgilash, bo‘lishsizlik, gumon olmoshlari. Bu olmoshlar vazifasi va xususiyatiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi, shuningdek, ismlarni qayta nomlash uchun ham foydalaniladi:

1. Ma’no
2. Kenglik
3. So‘z yasash
4. Egalik
5. Turlanish
6. Yordamchi so‘zlarga bog‘lanish.

*Masalan:* o‘zbek tilida: *mening qalamim* (turkman tilida: *mening galamym.*) egalik ma’nosida ya’ni qalam egasi ta’kidlangan.

Turkman tilida olmoshlar *çalyşmasylar* deb ataladi va 7 ta turi bor. *Çalyşmalar özleriniň aňladýan manyalaryna görä ýedi hili bolýarlar.*

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Bular quyidagilar. at çalışması, san çalışması, görkezme çalışması, gaýdym çalışması, ýokluk çalışması, nämälim çalışması, sypatlyk çalışması.

O‘zbek va turkman tillaridagi olmoshlarning nomlanishini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

<b>O‘zbek tilida</b>	<b>Turkman tilida</b>
Kishilik ( shaxs) olmoshlari	At çalışması
O‘zlik olmoshi	Gaýdym çalışması
Ko‘rsatish olmoshi	Görkezme çalışması
So‘roq olmoshlar	San çalışması
Belgilash olmoshlari	Sypatlyk çalışması
Bo‘lishsizlik olmoshi	Ýokluk çalışması
Gumon olmoshi	Nämälim çalışması

Olmoshlar fikrni ixcham shaklda ifodalashda, o‘rinsiz takrorni bartaraf etishda ahamiyatli.

**Masalan:** o‘zbek tilida: *Sanjarbek kitob o‘qidi va Sanjarbek darsga bordi* (turkman tilida: *Sanjarbek kitap okady we Sanjarbek sapaga bardy* ) bu gapda Sanjarbek ismi takror-takror kelgan va gapning mazmunida, ma’nosida g‘arazlikni yuzaga keltirgan. O‘zbek tilida: *Sanjarbek kitob o‘qidi va darsga bordi*. (turkman tilida: *Sanjarbek kitap okady we sapaga bary*. Bu gapimizda esa hech qanday o‘rinsiz takror yo‘q, ma’nosи va mazmuni aniq, qisqa va lo‘nda tuzilishga ega.

Olmosh va uning turlarida farqli jihatlar mavjud. Kishilik olmoshida uchta shaxs bor, ularning birlik va ko‘plik shakllari quyidagicha:

<b>O‘zbek tilida</b>	<b>Turkman tilida</b>
<b>Birlik</b>	<b>Birlik</b>
I. Shaxs - <i>men</i>	I. Shaxs - <i>men</i>
II. Shaxs - <i>sen</i>	II. Shaxs - <i>sen</i>
III. Shaxs - <i>u</i>	III. Shaxs - <i>ol</i>
<b>Ko‘plik</b>	<b>Ko‘plik</b>
I. Shaxs - <i>biz</i>	I. Shaxs - <i>biz</i>
II. Shaxs - <i>siz</i>	II. Shaxs - <i>siz</i>
III. Shaxs - <i>ular</i>	III. Shaxs - <i>olar</i>

Bu yerda nazariy tomondan tahlil qilinsa, 1. Shaxs so‘zlovchi, 2. Shaxs tinglovchi, 3. Shaxs esa ismi tilga olinganlar, ya’ni birinchi va ikkinchi shaxslarga kirmaydiganlar. Birinchi va ikkinchi shaxsda ikki tilda ham bir xil aytildi va yoziladi, uchinchi shaxsda harflarida va aytishida farq qiladi. Bu olmoshlar gaplarda ismlar o‘rnida qo‘llanib, ularning gaplarda ixchamligini ta’minlaydilar .

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

O‘zbek tilida kishlak olmoshlari o‘rnida men so‘zi o‘rnida “**biz olmoshi**”, “**Kamina**” so‘zi qo‘llansa kamtarlik ma’nosida keladi. Masalan: *Men siz aytgan barcha kitoblarni o‘qidim.* Gap mazmunida maqtanish o‘zini ko‘rsatish kabi holatlar uchraydi. *Biz siz aytgan barcha kitoblarni o‘qidik* ( turkman tilida: *biz siz aqdan hemme kitaplary okady* ) bu gapda kamtarlik ma’nosida kelgan. “**Sen**” o‘rniga “**siz**”, “**u**” o‘rniga “**ular**” olmoshi qo‘llansa, hurmat ma’nosida keladi. Masalan: *Akam safardan keldi, ular menga kitob olib berdilar.* Gapda keltirilgan “**ular**” olmoshi aslida yakka shaxsga ishora qilingan, ammo hurmat ma’nosida kelganligi uchun ko‘plik shaklida keltirilgan. Kishilik olmoshlari 1- va 2- shaxs ya’ni birlik shaklida men, sen olmoshlariga qaratqich kelishigi va tushum kelishigi qo‘srimchalari qo‘shilganda sen+ni = men+ning shaklida kelganda asos qismidan bitta **n** tovushi tushib qoladi **men+ning=** mening va **sen+ni=** seni shaklida.

Turkman tilida bu olmoshimiz at çalismasy deb ataladi va at çalismasy atlaryň ýerine ulanylýanandygy üçin kim? Náme?deýen soraglara jogap bolýar. Meselem. Biz xat ýazdyk. Sen mekdebe geldiň. Men kitap okaýaryn.

O‘zlik olmoshi **gaýdym** çalyşmasy bu olmosh bir shakli ya’ni o‘z (**O‘z**) olmoshidir: *o‘zim tayyorladim.* (*o‘zim tayyarlady*) o‘zlik olmoshi kishilik olmoshidan ko‘ra ma’no va ma’zmuniga ko‘ra boy bu olmosh kishilik olmoshlari bilan birga kelib shaxsning o‘zini va unga tegishli bo‘lgan narsa buyum, predmentni ta’kidlab ko‘rsata oladi. Masalan. *Mening o‘zim sovg‘a sotib oldim.* (*Mening o‘zim sawgat satyp aldim*) bu gapda o‘zning sovg‘a olganini alohida ta’kidlab ko‘rsatyapdi. Gaýdym çalyşmasy “**öz**” diýen sözden ybarat bolup, at deregine ulanylýan sözleriň ýerine çalşýar. Meselem. *Gürrüñçi “öz” gaýdym çalyşmasynyň yzyna ýöňkeme goşulmasyny goşup:* *şu işi özüň etdiň- deýip diňleyjiniň adynyň ýerina çalyşýar.* Ko‘rsatish olmoshi bo‘lib, bu olmosh turkman tilida **görkezme** çalyşmasy deb ataladi, ushbu olmoshlarning xususiyati narsa va predmentlarning shaxslarning joylashgan o‘rniga ishora qiladi. O‘zbek tilida ko‘rsatish olmoshlari shaxsni va narsa- buyumni ko‘rsatish uchun qo‘llanadi. Ular *bu, shu, u, u yerda, bu yerda, o‘sha yerda, shu yerda* olmoshlari hisoblanadi. *Manavi, anavi* so‘zlari ham qo‘llanadi. Yozuvda *ana bu, ana shu, mana shu, mana bu* kabi olmoshlar ajratib yoziladi. Jo‘nalish kelishigi **-ga** o‘rin-payt kelishigi **-da** chiqish kelishigi **-dan** yana bir qo‘srimcha **-day** qo‘srimchasi qo‘shilganda bitta **n** tovushi orttirladi. Masalan. **Bu+n+ga** = bunga **u+n+da** unda **o‘sha+n+dan** o‘shandan **U+n+day** unday **b+n+day** bunday kabi fonetik hodisalar bo‘ladi. Bu olmoshi yaqinni U olmoshi uzoqni shu olmoshi o‘rtacha yaqinni ko‘rsatadi va ishora qiladi. **Unaqa-** **bunaqa** so‘zlari belgining ortiqligini, **uncha-** **muncha** so‘zlari belgining o‘z miqdorida

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

ekanligini bildiradi. Turkman tilida **görkezme** çalyşmasy . Bir zady Görkezme çalyşmasy üçin ulanylýan çalyşma görkezme çalyşmasy diýilýär meselem. Bu gün bazar gün. Şu gülüň ady -keýikşah.“bu, su, ol“ sözleri görkezme çalyşmasy hasaplanýar. -lar qo’shimchasi -ler shaklida qo’llanib **buler**, **suler**, **oler** kabi qo’llanadi. Bu olmoshi yaqinni *su* olmoshi o’rtacha *ol* olmoshi uzoqni ko’rsatadi. Bu jihatdan ikkala qardosh til bir xil. So’roq olmoshlari shaxs, narsa, va predmet, rang, miqdor, kabi so’zlar haqida so’roqni bildirib, shaxsga **kim?** narsaga **nima?** belgi xususiyatga **qanday?, qanaqa?, qaysi?** tartibga **nechanchi?** miqdorga **qancha?** **nechta?** **necha?** paytga **qachon?** Mavjudlikka **qani?** Sabab-maqsadga **nega?, nimaga?** o’rin joyga **qayerda?, qayoqqa?, qayda?** kabi so’roqlarga javob bo’ladi. Masalan. Qachon o’qishga kirding? Bu gapda payt haqida savol berilgan vas hu ma’noda javob kutilmoqda. Buni esa so’roq olmoshining qay ma’noda kelganligi qaysi ma’noda so’roq ishlatilganligidan farqlash mumkin. Nega kelmading? gapida sabab so’rog’i berilgan va xususiyatiga ko’ra ham sababini izohlagan *Gulinur bugun darsda besh baho oldi*. Bu gapda **necha?** so’rog’ini qo’llaymiz, miqdorni bildiradi.

**Turkman tilida so’roq olmoshlari San çalyşmasy diýilýär.** San çalyşmasy sözlemde eslasan sanlaryň ýerine ulanylýar meselem. Snypda 36 okuwçy bar. Olaryň hemmesi okuwa gelipdir-deýip ”otuz alty” deýen sanyň ýerine” hemmesi ”diýen san çalyşmasy bilen çalşyrmak bolýar. San çalyşmasy ”hemme, käbir bary birnäçe” diýen ýaly sözlerden ybaratdyr.

Belgilash olmoshi hisoblanib, bu olmosh narsa va predmentni jamlab yoki ayirib ko’rsatadi. *Har* so’zi so’roq olmoshlariga bir so’ziga qo’shilib to’pdan ajratilgan shaxs, narsa belgilarni bildiradigan belgilash olmoshlarini hosil qiladi. *Hamma, barcha, bari, butun* olmoshlari esa shaxs, narsa, belgi harakatlarni jamlab ko’rsatadi. Demak, to’pdan ajratilgan yoki jamlab ko’rsatadigan shaxs, narsa, belgi harakat-holatlarni ifodayaydigan olmoshlar belgilash olmoshlarini hisoblanadi. *Har kim, har narsa, har bir, har xil* kabi olmoshlar ajratilib ya’ni ayrim yoziladi. Masalan. *Har bir bekning navkarları o’zlariga qarashlı yuklarnı tuya qo’shilgan og’ir aravalarga ortıb kelmoqda edilar.* Bu gapda *har bir* olmoshi alohida-alohida beklar haqida gap ifodalananayotganidan xabar beryapti, jamlikni ifodalaydigan olmosh bu hamma ya’ni butunlikni nazarda tutadi. Masalan.

Barcha shodlik senga bo‘lsin,

Bor sitam, zorlik menga,

Barcha dildorlik senga-yu,

Barcha xushtorlik menga[ 5]

Har kim o’zi mustaqil holda uy vazifalarini o’zi bajarsin. Bu gapda har bir o’quvchining o’zi tayyorlanishi va o’zi shug‘ullanishi haqida buyruq berilyapdi, bu

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

holatda o‘quvchilar birgalikda, jamlikda emas, ya’ni o‘zi ayrılgan, mustaqil holatda o‘zi bajaradilar.Turkman tilida bu olmoshimiz Sypatleyk çalyşmsy deb ataladi. *Sypatlyk çalyşmalary her sözi we her haýsy, her bir her hili, her tüýsli, her näçe ýaly sözleriň jeminden hasyl bolýar.meselem her bir adam.*

Bo‘lishsizlik olmoshi o‘zbek tili grammatikasida inkor ma’nosida keluvchi olmoshdir va bu olmosh hech so‘zi orqali ifodalanadi. So‘roq olmoshlari va bir, narsa, nima so‘zlari oldidan hech so‘zining qo‘llanishi natijasida bo‘lishsizlik olmoshi vujudga keladi. Hech kim, hech narsa, hech qachon, hech vaqt, hech qanday, hech qancha, hech bir so‘zlari bo‘lishsizlik olmoshi hisoblanadi va ular yozuvda ajratib yoziladi **hech** so‘zi yakka holda qo‘llansa ko‘pincha fe’llar oldidan qo‘llanadi. Masalan. *U uzoqdagi darvishni ko‘rmadi, chunki u daryoni nargi tarafida edi. Hammasi joyida do’stilar men hechkimdan hech narsadan hafa emasman, hech qanday shartim ham yo‘q yonizda yurib hech qanday foyda orttirish niyatim yoq.* **Turkman tilida** esa bo‘lishsizlik olmoshi Ýokluk çalyşmasy "heç" deýen sözeden ybarat bolup ol esasan "zar, kim, wagt, bir ýer" weçm. Sözler bilen ulanylyp, şol düşünjäniň ýoklugyny aňladýar.

**Meselem. Stoluň üstünde kitapyň ýoklugyny görüp, kitap sözünüň ýerine - ”heç xat ýok” diýip çalşyrýars.**

Gumon olmoshi o‘zbek tilida shaxs va narsalarning noaniqligini ko‘rsatadi, ularni taxmin orqali izohlaydi. So‘roq olmoshlariga **-alla** yoki **-dir** qo‘srimchasi qo‘sish yo‘li bilan gumon olmoshlari hosil qilinadi. - **Alla** qo‘srimchasi so‘roq olmoshlari oldidan - **dir** qo‘srimchasi esa, so‘roq olmoshlari so‘ngidan qo‘shiladi, va har ikkala qo‘srimcha asos qisim bilan qo‘shib yoziladi narsa so‘zi faqat **-alla** qo‘srimchasi yordamida gumon olmoshiga aylanadi. Bir so‘zi kishi, narsa, va nima so‘zlariga qo‘silib bu so‘zlarga gumon ma’nosini yuklaydi. Ularni kimdir, nimadir, qachondir singari gumon olmoshlari bilan almashtirish mungkin. Bunday paytda **bir** so‘zi gumon olmoshi o‘rnida qo‘llangan bo‘ladi. Shu bilan birga **birov** so‘zi ham kimdir so‘zi bilan erkin holda almashganligi tufayli gumon olmoshi hisoblanadi. Bulardan tahqari **ham** so‘zi ham kishilik olmoshlari bilan birgalikda qo‘llanib gumon ma’nosini bildiradi. Masalan, *kim ham borardi. Birovning aybini senga aytgan sening ham aybingngni birovga aytadi.* Yuqorida aytganimizdek, **-dir** qo‘srimchasi so‘roq olmoshlariga qo‘silib gumon, taxmin ma’nosini bildiradi. *Kimdir erkakmi yoki ayolmi Yoldosh ota kiyimidan ajrata olmadı gul do‘kon oldını supuryaptı va suv sepyaptı. Bu dunyoda tabi ortda ham jamiyatda ham bo‘shliqbo‘lmaydi, hech shubhasız ,uni, albatta kimdir to‘ldırışğa harakat qıladi.* **“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”** bu yerda **kimdir** so‘zi orqali, ya’ni shaxsi noaniqligi, noma'lumligi ifodalangan.

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Turkman tilida gumon olmoshi nämälim çalyşmasy deb ataladi . Nämälim çalyşma köplenç atlaryň ýerine çalsyp gelýär. Nämälim çalyşma ”pylany, neme, kimdir, nämədir, haýsydyr. Nämälim çalyşma “pylany, neme, kimdir, nämədir haýsydyr biri” bir predmetiň ady bilinmedik wagtda ýa-da onuň ady ýatdan çykarylanda ulanylýar.

*Meselem. Perwana maňa şol kitaby äber diýileli ýerine -Neme , maňa şol kitaby äber. Men Nuranalara gitdim diýilmeginiň ýerine -men pylanlara gitdim diýlip, Nurana sözüniň ýerine - neme, Nuranalara sözüniň ýerine “pylanlara” diýen sözler çalyşýar.*

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, o‘zbek va turkman tillaridagi olmosh so‘z turkumi kelishiklar bilan turlanganda turlicha fonetik o‘zgarishlar kuzatiladi. Ikkala turkiy tillardagi so‘roq olmoshlari fonetik variantlariga ko‘ra bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, morfemik tuzilishi va ma’nolari jihatidan farq qiladi.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. AtajanowA. Eýerjek bolnakyla. Enedilim.
2. Dadaboyev X.A., Xolmanova Z.T. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2015. 223 b.
3. Ezizow G. Türkmen sährasy. Aşgabat. 2007.
4. NurmonovA., SobirovA., QosimovaN. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.
5. Vohidov E. “Barcha shodlik senga bo‘lsin” she’rdani. – Toshkent . 2017.
6. Mengliboevna, B. S., & Sherali, M. (2021, October). The Need to Develop Students' Professional Competencies in Teaching Specific Methods of Teaching the Uzbek Language. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 131-132).
7. Mengliboevna, B. S., & Atakhanovich, M. S. (2021). Phonetic-Lexical Community and Characteristics in Uzbek and Karakalpak Literature Text Lexemas. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 10, 6-8.
8. Usanova, Q., & Xudayarova, M. (2024). O‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA SON SO ‘Z TURKUMINING MA’NOSIGA KO ‘RA TURLARI. Евразийский журнал права, финансовых и прикладных наук, 4(3), 19-21.
9. Uldawlet, D. (2021). PSYCHOLOGICAL MECHANISMS THAT INCREASE THE EFFECTIVENESS OF THE EDUCATIONAL PROCESS. Open Access Repository, 1(02), 52-53.
10. Halima, U. (2020). The importance of the PISA program in the primary grades. INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION, 1(4), 78-80.
11. Norov, I. (2020). New Technologies in the Education System of the New Century. International Journal of Academic and Applied Research (IJAAR).